

## ISHLAB CHIQARISHDA SODIR BO`LADIGAN BAXTSIZ HODISALAR VA KASB KASALLIKLARI

### НЕСЧАСТНЫЕ СЛУЧАИ НА ПРОИЗВОДСТВЕ И ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ

### ACCIDENTS AND OCCUPATIONAL DISEASES THAT OCCUR IN PRODUCTION

**Xakimov Ozodbek Hamidjonovich**

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti*

*Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi yo’nalishi talabasi*

**Ilmiy rahbar: Aripxodjayeva Malikaxon Baxtiyarovna**

**Anotatsiya:** Hozirgi kunda butun dunyoda ko’payib borayotgan baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarining oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar profilaktikasi haqida ma’lumot berildi, himoya vositalaridan foydalanish ishchi hodimlar salomatligi uchun muhimligi haqida nazariy tushunchalar berildi.

**Kalit so’zlar:** baxtsiz hodisa, kasb kasalligi, mehnat muhofazasi, xodim, tibbiy ko’rik, jarohatlanish, himoya vositasi, dalolatnomalar, korxona, zaharlanish, avariya, halokatlar.

**Аннотация:** Предоставлена информация о мерах профилактики, направленных на предотвращение несчастных случаев и профессиональных заболеваний, которые в настоящее время увеличиваются во всем мире, даны теоретические представления о важности использования средств защиты для здоровья работающих сотрудников.

**Ключевые слова:** авария, профессиональное заболевание, охрана труда, работник, медицинское освидетельствование, травма, защитное снаряжение, акт, предприятие, отравление, авария, аварии.

**Anotation:** The Prevention of measures aimed at the Prevention of accidents and occupational diseases, which are currently increasing all over the world, was informed, theoretical concepts were given about the importance of the use of protective equipment for the health of working employees.

**Keywords:** accident, occupational disease, labor protection, employee, medical examination, injury, protective equipment, deed, enterprise, poisoning, accident, accidents.

Hammamizga ma’lum XXI asr texnologiyalar asri. Fan va texnika taraqqiyot etayotgan bir asrda yurtimizdagi ishlab chiqarish korxonalarida zamонавиу texnikalarning kirib kelishi tabiiy xol albatta. Tanganing ikkinchi tomoni bo’lgani kabi texnikalar bilan birga yangi xavf-hatarlar ham kirib kelmoqda. Biz esa bu xavflarning kelib chiqish sabablarini, oqibatlarini, bartaraf etish usullarini o’rganishimiz zarur bo’ladi. Ishlab chiqarish jarayonining buzilishi, ishlovchilar uchun sanitariya va gigeniya

me’yor va qoidalarning yaratilmasligi, ishlab chiqarish jarayonida hosil bo’ladigan turli zaharli va zararli moddalar, ishlab chiqarishdagi avariya va halokatlar, ishlovchilarning hayotiy faoliyatiga, sog’ligiga, atrof muhit tozaligiga va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga tahdid solmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizning eng muhim va kechiktirib bo’lmaydigan vazifalari qatorida aholi hayotining xavfsizligini ta’minlash masalasi dolzarb o’rin olgan. Hozirgi davrning eng muhim vazifalari qatorida mehnatni muhofaza qilish va mehnat jarayonlarida havfsiz metnat sharoitlarini tashkillashtirishga va yaxshilish masalasiga alohida etibor qaratilib yurtimizda bu borada qator qonunlar, hukumat qarorlari qabul qilingani bejiz emas albatta. Dunyoning barcha mamlakatlarida 1996-yildan boshlab har yili 28-aprelda “Butunjahon mehnat muhofazasi kuni” o’tkazilib kelinmoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti butunjahon jamoatchiligi etiborini mehnat muhofazasi bo’yicha hal etishi lozim bo’lgan muammolarga va mehnat muhofazasi madaniyatini oshirishga va ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa va kasb kasalliklarini kamaytirishga qaratib kelmoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti ma’lumotlari bo’yicha dunyoda har yili ishlab chiqarishda 2.2 mln o’lim, 160 mln kasb kasalliklari, 270 mln og’ir baxtsiz xodisalar ro’yxatga olinadi. Baxtsiz hodisa va kasb kasalliklari natijasida yetkazilgan zarar uchun bir yilda to’langan pul miqdori - 1.25 trn. dollorni ya’ni dunyo yalpi ishki mahsulotini 4% tashkil etadi. Baxtsiz hodisa natijasida ishchi hodimlar jarohatlanishi, hodimlar sog’ligiga katta zarar yetishi va shikastlanishi tabiiy hol albatta. Himoya vositalaridan foydalanish biroz bo’lsada shikastlanish darajasini kamaytiradi.

Ishlab chiqarishda jarohatlanish, zaharlanishning sodir bo’lishiga yoki kasb kasalligining kelib chiqishiga sanoat korxonalarida yo’l qo’yilgan tashkiliy va texnik xatolar natijasi deb qaraladi. Shuning uchun ham ishlab chiqarish korxonalarida yuz bergen har qanday baxtsiz hodisa har tomonlama tekshiriladi va hisobga olinadi. Tekshirish va hisobga olish natijalari baxtsiz hodisa kelib chiqishi sabablarini aniqlab, kelajakda jarohatlanish, kasallanishning qaytarilmasligi uchun zarur bo’lgan chora-tadbirlarni ko’rish imkoniyatini yaratadi. Baxtsiz hodisa ish boshlanishidan oldin, ish davomida, ishdan keyin, ish joyida, korxona maydonida, ma’muriyat topshirig’i bilan korxona maydonidan chetda yuz bergenligidan qat’i nazar tekshirilishi lozim. Tekshirish, hisobga olish ishlarini kasaba uyushmasi federatsiyasining nizomga asosan sex boshlig’i, xavfsizlik texnikasining muhandisi, jamoat inspektori va bosh muhandis ishtirokida tuziladigan komissiya olib boradi.

Bir kundan kam bo’lmagan ish kuni yo’qotilgan baxtsiz hodisalar 3 kun davomida tekshirilib maxsus shakl (N-1) bo’yicha 4 nusxada dalolatnomada tuziladi. Dalolatnomada baxtsiz hodisaga uchragan kishi haqidagi axborotdan tashqari aniqlangan baxtsiz hodisaning sabablari, bunday hodisalar takrorlanmasligi uchun qanday chora-tadbirlar ko’rilishi kerakligi haqidagi ma’lumotlar beriladi. Dalolatnomani bosh muxandis tasdiqlaydi. Dalolatnomaning bir nusxasi sex boshlig’iga yuboriladi, ikkinchi nusxasi kasaba uyushmasi markaziy qo’mitasiga – texnik nazoratchiga, to’rtinchi nusxasi korxona mehnatni muhofaza qilish bo’limiga nazorat o’rnatish uchun beriladi. Baxtsiz hodisaning asoratlari keyin ham

kelib chiqishini hisobga olib tuzilgan dalolatnomalarni 45 yilgacha saqlash tavsiya etiladi. Tekshirishdan so'ng korxona ma'muriyati yo'l qo'yilgan xatolarning qaytarilmasligini ta'minlashga "Экономика и социум" №10(125) 2024 www.iupr.ru 335 qaratilgan buyruq e'lon qiladi, baxtsiz hodisaning kelib chiqishida aybdor kishilarni javobgarligi aniqlanadi.

Hozirgi kunda yana bir muammolardan biri ishlab chiqarish korxonalarida kasb kasalliklarining vujudga kelishidir. Kasb kasalliklari - kasbga aloqador zararlarning organizmga ta'siri natijasida paydo bo'ladigan kasalliklar. Kasb kasalliklarining kechishi unga sabab bo'lgan zararli omillarning o'ziga xosligi, kuchi, davomiyligi va ularning birgalikdagi ta'siriga bog'liq. Kasb kasalliklarining zararli omillarini hisobga olgan holda belgilanadi. Kasb kasalliklarining fizik (kasbga aloqador karlik, vibratsiya kasalligi, nur kasalligi, kesson kasalligi, balandlik kasalligi va boshqalar), biologik (infektion va parazitar kasalliklar: brutsellyoz, kuydirgi) va kimyoviy omillar ta'sirida, ba'zi changlar uzoq vaqt nafasga olinganda (pnevmonioz, bronxit va boshqalar), shuningdek, jismoniy zo'riqqanda yoki shikastlanganda (nevrit, bursit) vujudga keladigan turlari farq qilinadi. Kasb kasalliklarining kelib chiqishiga organizmning o'ta toliqishi va kasallikka qarshi kurasha olish faoliyatining pasayishi ham sabab bo'ladi. Kasb kasallklari proliferatsiyasida korxona tasarrufidagi davolash muassasalarida amalga oshiriladigan sog'lomlantirish, maxsus profilaktik ovqat bilan ta'minlash, mehnat sharoitlarini nazorat qilish, korxonalardagi o'ziga xos himoya vositalari, doimiy o'tkaziladigan texnika xavfsizligi tadbirlari, davriy tibbiy ko'rik, to'g'ri ovqatlanishning yo'lga qo'yilishi va dam olish tartibiga rioxalish, spirtli ichimliklar is'temol qilish va tamaki chekishdan saqlanish xodim salomatligini mustahkamlaydi. Ishchining salomatligi muvofiqligini aniqlovchi tibbiy ko'riklar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2012-yil 10-iyuldaggi 200-sonli "Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risidagi" buyrug'i bilan belgilangan tartibda o'tkaziladi (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 214-moddasida ko'rsatib o'yilgan). Bularning barchasi ishchi hodimlarning sog'ligi va salomatligi asrash maqsadida qilingan ishlar majmui hisoblanadi. 2008-yil 10-sentabrda O'zbekiston Respublikasining "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi qonunining qabul qilingani ham buning yaqqol misoli bo'la oladi. Qonunning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Fuqarolarning ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasiga bo'lgan huquqlarini qonunda belgilab qo'yish orqali ularning ijtimoiy himoyasini amalga oshirish, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa va kasb kasalliklari oqibatida xodimning hayoti hamda sog'ligiga zarar yetkazilganligi munosabati bilan sug'urta toponi to'lanishini ta'minlash;

- Mehnatni muhofaza qilish holatini holatini va mehnat sharoitlarini yaxshilash, xodimlarning sog'ligini saqlash.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Yormatov G‘.Yo.va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.:“Aloqachi”, 2009.–348 b.
2. .“Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi qonun. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008 , 37-38- son.
3. M.A. Rasuleva, A.X. Rasulev. Hayot faoliyati xavfsizligi madaniyatini shakllantirish asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2020 y.
4. K.B.Karivova “ Hayot faoliyat xavfsizligi”.